

**SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING
AHAMIYATI VA AMALIYOTI**

Raxmonov Xurshid Xayotjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tarbiyaning ahamiyati va ta'lim darajasi haqida shuningdek, unda ta'limning ahamiyati va amaliyoti haqida keng ma'lumotlar va fikrlar bildirilib o'tilgan. Shuningdek, ularning shaxs doirasidagi pedagogik xususiyatlari va ishlanmalari haqida ma'lumotlar keng asosda berilib o'tilgan.

Abstract: This article provides extensive information and opinions on the importance of person-centered education and the level of education, as well as the importance and practice of education in it. Also, information on their pedagogical characteristics and developments within the scope of the person is provided on a broad basis.

Аннотация: В данной статье представлена обширная информация и мнения о важности личностно-ориентированного образования и уровне образования, а также о важности и практике образования. Также предоставляется широкая информация об их личных педагогических характеристиках и достижениях.

Kalit so'zlar: shaxs, jarayon, xususiyat, yaratish, maktabgacha, ijodiy salohiyot, munosabat, ta'lim jarayoni.

Keywords: personality, process, trait, creation, preschool, creative potential, attitude, educational process.

Ключевые слова: личность, процесс, черта, творчество, дошкольное учреждение, творческий потенциал, отношение, образовательный процесс.

Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog eʼtiborga olishi kerak boʻlgan omillar Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni amalga oshirishda taʼlim jarayonida bolaning bir vaqtning oʻzida oʻynashi, rivojlanishi va oʻrganishi uchun imkoniyat yaratish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar va pedagog oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning asosiy shakli ularning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi. Birgalikdagi faoliyat – bu bolaning subyektiv pozitsiyasini egallash shartidir, jarayon davomida bolaning qiziqishlari, moyilligi, ehtiyojlari, istaklari qondiriladi, ijodiy salohiyati rivojlanadi, shaxsiy fazilatlarini (faoliyati, tashabbusi, mustaqilligi, ijodkorlik) shakllanadi. Birgalikdagi faoliyat quyidagicha tashkil etiladi:

- bolalarni qiziqtirgan muammolarni birgalikda aniqlash;
- bolalar faoliyatining maqsadini birgalikda aniqlash;
- bolalar faoliyatini birgalikda rejalashtirish, taxminlar, muammolarni hal qilishda vosita va materiallarni, usullarini tanlash;
- bolalarning mustaqil faoliyati, tarbiyachining individual yordami;
- birgalikdagi faoliyat natijasini muhokama qilish, yutuqlarni muhokama qilish, muvaffaqiyatsizliklarni aniqlash.

Bolalar bilan oʻzaro munosabatlarni rivojlantirish jarayonida yoʻnaltirilgan shaxsiy rivojlanishni yaratish kerak: muvaffaqiyat holatlari, bolaning shaxsiy tajribasi bilan bogʻliq vaziyatlar, faoliyat, vaziyatni tanlash, asbob-uskunalar, faoliyat sherigi va bolaga oʻzini shaxs sifatida anglash imkoniyatini berish. Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili. Bolani muvaffaqiyatga undash kerak. Bu bolaning faol hayotiy pozitsiyasini ragʻbatlantirish maqsadida oʻyin faoliyatiga kiritishdir. Bolaning oʻyinida va samarali faoliyatida ijodkorlikka maksimal darajada yoʻnaltirish, oʻz ijodiy faoliyatda tajribaga ega boʻlishi nihoyatda muhimdir. Shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi. Ijodkorlik tufayli bola oʻz qobiliyatlarini ochib beradi, oʻz shaxsiyatining “kuchli tomonlarini” bilib oladi. Faoliyatning muayyan turida muvaffaqiyatga erishish bola shaxsiyatining ijobiy tomonlarini, “Men” konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ishonch va qoʻllab-quvvatlash tamoyili. Pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim va tarbiya texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga

ishonch, o'zini o'zi anglash va o'zini "men"ligiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o'rnatmaslik kerak. Tashqi ta'sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Farqli yondashuv tamoyili – tarbiyalanuvchilarning shaxsiyatini takomillashtirishda samarali pedagogik yordam vazifalari hal qiladi, tarbiyalanuvchilarning psixofizik, shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishga yordam beradigan maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratishga yordam beradi. Bolaning tabiatiga, uning sog'lig'iga, aqliy va jismoniy tuzilishiga, qobiliyat va moyilliklariga, idrokiga qarab rivojlanishidir. Ushbu tamoyillarni amalga oshirish umumiy psixologik makonni yaratishni, ta'lim jarayonini o'yin orqali va bolalar bilan ishlashning shakli sifatida, munozaralarni, suhbatlarni, qo'shma kuzatuvlar va eksperimentlarni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Tarbiyachining oldiga qo'yilgan vazifasi samarali muloqot tamoyillaridan foydalanishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyalarning turlari Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan ta'lim va tarbiya usul va vositalarini aniqlaydi.

Shu bilan birga, bolalarning munosabatini va faoliyati tashkil etilishini o'zgartiradi, turli o'quv qo'llanmalardan foydalanadi:

- ✓ tadqiqot (muammolarni izlash, kashfiyot orqali o'rganish, tajriba);
- ✓ kommunikativ (munozara, nutqni rivojlantirish, fantaziya, notiqlik);
- ✓ o'yin (o'yin orqali o'rganish, ertak, vaziyat, sahnalashtirish – fantaziyaga kirish);
- ✓ psixologik (o'z taqdirini o'zi belgilash – bolani tanlashga o'rgatish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi himoya qilish, o'z-o'zini tarbiyalash);
- ✓ faoliyat (bola bilimlarni tayyor holda emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonida o'zi o'rganadi. Ta'lim-tarbiyani tuzilishi faol qadamlar tizimini o'z ichiga oladi);
- ✓ refleksiya (individuallikni saqlash, ijodiy yaratuvchanlik, shaxsiylikni har qanday faoliyatda shaxs sifatida saqlab qolish, o'zini-o'zi aniqlash vositasi).

Xulosa qilib, aytish mumkinki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi sgaxsning yanada rivojlanishiga va ulkarning samaradorligini oshjirishga katta hizmat qiladi. Pedagogoiik vazuyatlkarni baholashda va ularning samaradorligini aniqlashda juda ham katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/". Toshkent, 2022-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 391-sonli qarori.
3. Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 12-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida" 128-sonli buyrug'i
4. Valiyeva F.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati // Multi disciplinary research studies and education, Kuala Lumpur, Malasiya 2021
5. Kalmuratov T.N. Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim sifatini boshqarishning o'ziga xos jihatlari. Ilim hám jámiyet. №4.2021. Bet 30-33. 3-bet